



**TA'LIM KLASITERI SHAROITIDA TALABALARNI KASBIY
AMALIYOTGA TAYYORLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK
XUSUSIYATLARI**

Turdiyev Namozbek Baxritdin o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pochta manzili: turdiyevnamozbek1992@gmail.com

+998775500492

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – talabalarni kasbiy amaliyotga tayyorlashdir. Ta'lim klasterlari o'zaro bog'langan ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirgan yangi tizim sifatida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ta'lim klasteri sharoitida talabalarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik aspektlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, integrativ, ilmiy tadqiqot, fan, pedagogika, klaster, texnologiya.

Аннотация: Одной из важнейших задач современной системы образования является подготовка студентов к профессиональной практике. Образовательные кластеры играют важную роль в развитии практических навыков студентов как новая система, интегрирующая взаимосвязанные образовательный, исследовательский и производственный процессы. В данной статье анализируются организационно-педагогические аспекты подготовки студентов к профессиональной практике в условиях образовательного кластера.

Ключевые слова: образование, инновации, интегративность, научные исследования, наука, педагогика, кластер, технология.

Abstract: One of the most important tasks of the modern education system is to prepare students for professional practice. Educational clusters play an important role in the development of students' practical skills as a new system that integrates interconnected education, research and production processes. This article analyzes the organizational and pedagogical aspects of preparing students for professional practice in the conditions of an educational cluster.





Key words: education, innovation, integrative, scientific research, science, pedagogy, cluster, technology.

Jahonda yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tizimlarini (LMS) yaratish va ularni amalga oshirishning innovatsion mexanizmlarini tatbiq etishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning metodik kompetentsiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va integrativ dasturiy ta'minotni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar S.N.Rastvortseva va N.A.Cherepovskayaning ilmiy mulohazalariga ko'ra ta'lim klasteri – “ta'lim - texnologiya - ishlab chiqarish” innovatsion zanjiridagi o'qitish vositalari tizimiga muvofiq, gorizontaal bo'g'inlarga asoslangan korxonalar uchun mutaxassislarni ko'p bosqichli tayyorlashning yaxlit tizimidir. Ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning integratsiyasi, o'qitish vaqtini qisqartirish, korxonalarni sifatli kadrlar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish talablarini prognozlash hamda korxonalarda mutaxassislar malakasini oshirishning moslashuvchan tizimini yaratishdir”. [1]

Shu jihatdan, ta'lim klasteri davlat, jamiyat talabidagi kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lgan mutaxassislarni uzluksiz tayyorlashning ajralmas tizimi bo'lib, ma'no va mazmun jihatdan zamonaviy innovatsion ta'lim istiqbolini belgilab beruvchi omillardandir. Shu o'rinda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (PTIK) muhiti yoki ta'lim innovatsion klasteri sharoiti deganda, tadqiqotchi M.Toshpo'latov “Klaster - ingliz tilidagi «cluster» so'zidan olingan bo'lib, tarjimada guruh, to'p, to'plam, bog', shoda kabi ma'nolarni anglatadi. Mazkur atama kompyuter muhandisligida, musiqa, ta'lim, astronomiya, iqtisodiyot kabi sohalarda qo'llaniladi va vazifasi jihatidan bir-biriga bog'liq va bir «marjon»dek tizilgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi” deya munosabat bildirgan. [3]

Zamonaviy ta'lim sharoitida darslarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga ustuvorlik berish esa dolzarflik kasb etadi. Bu jarayonlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli katta bo'lib, ular orqali o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi interaktivlikni oshirish, individual yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shuningdek, zamonaviy LMS tizimlari orqali ta'lim





jarayonini boshqarish, o'qitish metodlarini diversifikatsiya qilish va talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadlariga erishiladi.

Innovatsion yondashuvlar orqali pedagogika sohasidagi bilimlarni yangilash, yangi metodologiyalarni joriy etish va amaliyotni takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlanishi uchun, balki ta'lim sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayoni zamonaviy dunyoda o'zgaruvchan talablarga javob berishi kerak. Bugungi kunda, internet tarmog'i va raqamli texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylangan. O'qituvchilar va bog'cha tarbiyachilari o'z faoliyatlarida internetning imkoniyatlaridan keng foydalanishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. O'qituvchilar tomonidan yaratilayotgan elektron darsliklar va noan'anaviy dars ishlanmalari, ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Ushbu resurslarni taqdim etish orqali o'quvchilar va bolalar o'z bilimlarini mustahkamlashlari, yangi ko'nikmalarni egallashlari mumkin. Ta'lim sub'ektlarining aniq funksional vazifalari belgilab olinishi, kasbiy amaliyotga tayyorgarlik ko'rish uchun sharoitlar yaratishga olib keladi.[2]

Shuningdek, ta'limning maqsad va mazmunini anglashda yangi metodlar va axborot vositalarining ahamiyati katta. Fanlar integratsiyasi orqali ta'limni yanada boyitish mumkin bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni esa mavjud metodlarni yangilash, axborotlarni to'g'ri tashkil etish orqali samarali bo'lishi lozim. Bunday yondashuvlarning muhimligi shundaki, u nafaqat ta'lim jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki jamiyatning ijtimoiy guruhlariga bo'lgan munosabatni ham yaxshilaydi. Ta'limga muhtoj bolalar uchun pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshirish maqsadida ular uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

Bunda asosan e'tibor pedagoglarga qaratiladi, chunki ular ta'lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi sifatida muhim rol o'ynaydi. Ularning professionalligi va innovatsion yondashuvlari ta'lim sifatini belgilaydi hamda kelajak avlodning bilim olishida muhim omil bo'ladi. Barcha bu jihatlar birgalikda ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogikada «klaster (cluster)» - «tarmoqlar metodi texnologiyasi» metodida mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanish,





biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirishga xizmat qiladigan usul ma'nosida qo'llaniladi .

Professor G'.I.Muhamedovning fikricha, «...ta'lim tizimida mavjud kamchiliklarni o'rganish va ularning tahlili asosida pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqa va integratsiya, ta'lim sub'ektlari faoliyatidagi tarqoqlikni bartaraf etish orqali hududda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning qondirish asnosida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Shuning uchun zamonaviy o'quv jarayoni amaliyotda qo'llanilishi qiyin bo'lgan bilimlarni o'quvchilarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilishga namoyish etish, shuningdek o'quv jarayonida bu kabi muammolarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Tahlillarga ko'ra, pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, didaktik.

Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashda asosan fan dasturlari, o'quv rejalar, talablarni ishlab chiqish, rivojlantirish, o'quv-uslubiy ta'minotni mazmunan rivojlantirish nazarda tutiladi.

Pedagogik-psixologik shart sharoitlarga turli metodikalar ishlab chiqish va ta'lim tarbiya jarayoniga tadbiq etish, psixologik o'yinlarni qo'llash, o'quvchilarning hissiy-emotsional va aqliy harakatlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ishlanmalar va texnologiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi.[4]

Didaktik shart-sharoitlarga umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun tegishli fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar, elektron usulubiy qo'llanmalar hamda didaktik o'yinlarning elektron variantlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi. "Maktab-laboratoriya" tushunchasi ham keng ma'noda pedagogikaning dastlabki holatini o'z ichiga olgan, ta'lim-tarbiyaning eng muhim bo'g'ini, tizim va uning ta'minlanishi bilan birgalikda moddiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, yuridik boshqaruv va marketingdir, ko'proq "maktab-laboratoriya"ning shaxsiy talqini uni o'quv materiallari to'plami, birinchi navbatda elektron ta'lim resurslari bilan bog'laydi, ularni ishlab chiqish, saqlash, yetkazib berish, taqdim etish vositalari hisoblanadi. Masalaning muhim jihati esa, oliy ta'lim muasassa talabalarining umumta'lim maktablarida tashkil etilgan "maktab-laboratoriya"ning maqsad vazifalarini anglash bilan bog'liq. Bunda maktab





laboratoriya o'zi kelajakda faoliyat yuritadigan mug'itga oldindan moslashish, zarur bo'lsa, mavjud muammolarni aniqlash va ularga amaliy yechim topish ko'nikmasining shakllantirish bilan ham ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari mutaxassislarning samaradorlikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratilmog'i, uzluksiz metodik xizmatni tashkil etish, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashini ta'minlashda ijodiy yondoshuvning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'siri, avvalo mavjud muammolarni aniqlashtirib olish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarini kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishda muhitini yaratish barqarorligini ta'minlashga xalaqit beruvchi omillar:

1. Ta'lim muassasasi pedogoglarining samarali ishlashlari uchun ijtimoiy psixologik holatlar va xususiyatlar shakllananishida sustkashlik holatining yuzaga kelishi, sohadagi uzviylikning to'liq natijalarga yo'naltirilganligi o'z isbotini topishida muammaolarning yuzaga kelishi.

2. Pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishda amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi;

3. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning quyi bo'g'inlari, fan kafedralari, metodik kengashlarning faolligi samarali natija ko'rsatmasligi.

4. Fan dasturlarini takomillashtirish, uning mazmuniga fan-texnikaning so'ngi yutuqlarini singdirishda fanlar integratsiyasining inobatga olinmaganligi.

Hududiy ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya muhiti mutaxassislarni tayyorlash uchun faqatgina buyurtmachi sifatidagina emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, talabalar bilan muloqot qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratish, kasbiy hamjamiyat va pedagogik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish, fir mulohazalarini bildirishga mas'ul hisoblanadilar. Integratsiyalashgan "maktab-OTM-oila" muhitida tashkiliy, uslubiy, dasturiy ta'minot, ularning texnik vositalari asosida samarali sharoitlar yaratish talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, talabalarning ta'lim ehtiyojlarini ham hisobga olishlari lozim. Integratsiyalashgan ta'limga rivojlanayotgan ijtimoiy hamjamiyat sifatida qaraladi, talabaning professor-o'qituvchilari bilan o'zaro munosabati, maktab o'qituvchisi va o'quvchilari bilan keng ijtimoiy-madaniy hamda mafkuraviy kontekstda insonni aqlli jamiyatda hayotga tayyorlash va moslashtirish kategoriyalari deb qaraladi.





Xulosa qilib aytganda, bilim olish va jamiyatga optimal moslashish uchun o'quvchining aql-idroki hamda his tuyg'ularidan tashqari, dunyoni bilishga, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Chunki, o'quvchining dunyoni o'zlashtirishi birinchi navbatda uni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilinishiga bog'liq. Bilim olishning maqsadi va vazifasi turli hodisalarni o'rganish yo'li bilan ularning chuqur turg'unligini belgilovchi tomonlari hamda qirralarini, ularning mohiyatini ochib, haqiqatni anglab olishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, M. (2019). Talabalarni kasbiy tayyorlash: nazariya va amaliyot. Tashkent: Fan va texnologiya.
2. Saidov, A. (2021). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. Tursunov, M. (2022). Amaliyotga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
4. Xodjaev, B. (2020). Ta'lim klasterlari: nazariya va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
5. Karimov, R. (2021). Kasbiy ta'limda amaliyot va nazorat. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
6. Турдиев, Н. Б. (2024). интегратив дарсларни ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитлари. экономика и социум, (1 (116)), 1407-1412.

